

**MAMLAKATIMIZDA TA'LIMDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN
ISLOHOTLAR**

*I.Muradov
Ismoiljonov J.R.
Ruziyeva G.M.
Ismatova Y.A.*

Annotatsiya. Bugungi kunda insonning o'zi va dunyoni tushunishida, ilmiy faoliyatdagi ziddiyatlarning yechimini topishda va global muammolarni hal qilishda olimning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish zarurligining ilmiy tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoyi va tashabbuskor kadrlarni tayyorlash katta e'tibor talab qiladi.

Tayanch so'zlar: Talim, kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, o'quv rejasi, mutaxassislik fanlari, maxsus fanlar, talim berish jarayoni, teskari aloqa-bilim olish, didaktika, didaktik jarayon. Maxsus fanlar, ta'lim-tarbiya predmeti, maqsadi, vazifalar, qonuniyatlar, tamoyillar, o'qitish jarayoni, tizim, kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq iqtisodiyotning barcha sohalardagi kabi ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar o'zining ijobiy natijasini ko'rsatmoqda. Har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoyi va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Rivojlangan va taraqqiy etgan davlatlar safidan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan O'zbekistonimiz, sanoatning barcha tarmoqlari, jumladan, ta'lim sohasida ham ilg'or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali ta'lim mazmunini jahon andozalari darajasiga olib chiqishga harakat qilmoqda. Ayni paytda oliy ta'lim muassalarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratish muammolariga qaratilgan diqqatga sazovor ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun xorijiy mamlakatlarning magistratura ta'lim jarayonlari tajribalari bilan almashinuv yaxshi samara bermoqda. Ta'lim sohasida halqimizning boy merosi, buyuk mutafakkirlarimizning g'oyalari va davrimizning ilg'or yangiliklarini o'zida mujassamlashtirgan metodik tizimning yaratilishiga asos bo'lmoqda. [1.2].

Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotida tub yangilanishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan, xom-ashyo yo'nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayayotganligi Kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilishning muhim omiliga aylangan. Shu sababli ham, Kadrlar tayyorlash

milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri – ishlab chiqarish hisoblanadi. Ishlab chiqarish–pirovard natijada kichik mutaxassis kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga, kasbiy layoqatiga baho beradigan bosh mezondir. Hozirgi kunda respublikamizda ishlab chiqarishning o‘rta maxsus, kasb–hunar ta’limi tizimidagi mavqeyini kuchaytirish maqsadida kasb–hunar ta’limi, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini izchillik bilan ta’minlash, tayyorlanayotgan kichik mutaxassis kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan aniq talablar qo‘yish, shuningdek nodavlat tuzilmalari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning buyurtmalarini shakllantirishning turli xil mexanizmlarini ishlab chiqishga asosiy e’tibor qaratilmoqda.[2].

Hududlarda yangi oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo‘limlarning ochilishi, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo‘nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi.

Shu bilan birga oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta’minlashga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda.[3].

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847- sonli Farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilinishi bugungi kunda oliy ta’lim muassasalariga yanada ko‘proq vazifalarlar va maqsadlarni belgilab beradi. Konsepsiyada davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, Respublika oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar reytinglarida o‘z munosib o‘rinlarini egallashlari, o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish, investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish, ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligini yo‘lga qo‘yish va boshqa bir qator ustuvor yo‘nalishlar belgilab olingan.

Aytish lozimki, mazkur masala va muammolarni hal qilish uchun respublikamizda keng ko‘lamda ta’lim-tarbiya ishlari va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan katta tajribaga,

o'qishga tashkiliy va amaliyotga oid ishlar olib borilmoqda. Oliy o'quv yurtlari yangi jihozlar, kompyuter texnikasi, zamonaviy buyumlar va vositalar bilan ta'minlanmoqda, iqtidorli talabalar rivojlangan mamlakatlarga o'qishga yuborilmoqda. Yangi-yangi institutlar, universitetlar, akademik litseylar tashkil etilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar tuzilmoqda. Mazkur olib borilayotgan ko'p qirrali ishlar asosan, tayyorlanayotgan xodimlarning sifatini oshirishga qaratilgan. [3].

Issiqlik energetikasi kafedrasida maxsus fanlarni o'rgatish jarayoni turli xildagi ko'rgazmali o'quv qurollarini ko'rsatish bilan, mashqlar, misollar, va dasturlardan foydalanishni o'rgatish jarayoni, bu mashg'ulotlarning o'zaro uzviy bog'langanliklari bilan olib borilishi lozim.

Kompyuter texnikasidan dars berishda kompyuterlarga oid barcha ko'rgazmali texnik qurollar, uning qismlari bo'lishi lozim. Shuningdek, talim berishning zamonga xos texnik vositalaridan, dasturlardan, diafilmlar, slaydlar, kinofilmlar, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi kompyuterlardan hamda ularning dasturlaridan, qo'llanmalaridan foydalanish kerak. [4].

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni qayta qurish — Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur (qonun) asosida jahon andozasi talablariga mos tushuvchi mutaxassis xodimlarni tayyorlash; mutaxassislar tayyorlashdagi sifatni oshirish: mutaxassis tayyorlashda ko'p pog'onali talim tizimiga o'tib, 4 yil davomida fundamental fanlar bo'yicha talim berib, bakalavr va boshqa mutaxassislar tayyorlash; tadqiqot qilinayotgan mutaxassislikka xos, dunyo talim andozalari talablariga mos tushuvchi talim standartlarini ishlab chiqarish va ularni hayotga tatbiq etish; oliy talimda o'qitishning ko'p bosqichli tizimiga o'tish uchun zarur bo'lgan o'qitishning tashkiliy metodikasini va nazariy metodologiyasini ishlab chiqarish va sohalarga xos adabiyotlarni yaratish va boshqalar. [5].

O'zbekiston Respublikasining Talim to'g'risidagi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi shaxsni birinchi o'ringa qo'ydi. Faqat yuksak bilim va malakalarni mustahkam egallagan, shu bilan birga yuksak ma'naviyatli va milliy o'zligini chuqur anglagan yosh mutaxassislargina O'zbekistonni XXI asrda har tomonlama ilg'or mamlakatlar qatoriga olib chiqishi muqarrar. [6].

Maxsus kasb fanlari talimi uqituvchilarini tayyorlashni takomillashtirishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf qilishni quyidagi asosiy yo'nalishlarda: maxsus fanlar mazmunini integratsiyalash, amaldagi dastur va rejalarni zamon talablariga mos ravishda qayta ishlash va to'ldirish, maxsus fanlar talimning samarali shakl va uslubiyot, metodlarini izlab topish, bakalavrlarning mustaqil o'quv-metodik faoliyatini kuchaytirish, kabilarda olib boriladigan ishlarda o'z aksini topishi mumkin. Oliy o'quv yurtlarida maxsus fanlar va umum pedagogika va xususiy

metodik fanlar mazmunini integratsiyalash vazifasi turibdi. Keyingi yillarda o'quv predmetlarini tabaqalashtirib o'qitish g'oyasi maxsus fanlar, umum talim va pedagogika fanlarini bir-biridan sezilarli darajada ajratib qo'ydi. Shu sababli bu fanlarni bir-biriga yaqinlashtirish yani integratsiyalash mexanizmini topishni xayot taqozo etmoqda.[7].

O'qitishdan asosiy maqsad talabalarga yurtimizda ishlab turgan yirik sanoat korxonalarida qurilmalarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, ekologiyadagi o'rni va foydalanish prinsiplarini, hamda texnik muammolar bo'yicha to'g'ri echimlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi, dunyoqarashlarini ke ngaytiradi.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent., 2000. -245 b.
2. Islom Karimov. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. 1-tom, 117-118 betlar
3. Ziyomammedov Abdullayeva B.Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot «Ma'naviyat asoslari» darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma-Toshkent, Abu Ali Ibn Sino nomli tibbiyot nashriyoti, 2001.
4. Ishmuhmedov R, Abduqodirov A., Pardaev A. «Ta'limda innovatsion texnologiyalar». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iste'dod» jamg'armasi., Toshkent-2008 y.
5. Raximov O.D., Turgunov O.M. va b. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. /Toshkent, «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2013y., 170-b.
6. Sh.K.Maxkamdjanova, K.M.Maxkamdjanov «Energetika sohasida talabalarning bilim darajasini faollashtirish uslubiyati» ToshDTU xabarlar. Toshkent-2006-y